

XORIJIY TILLARNI O'RGATISH VA O'RGANISHDA FOYDALANILADIGAN SAMARALI METODLARNING SHAJARALANISHI

**F.Shokirova,
SamVPQTMOI**

Yurtimizda xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishda pedagogik va ta'lim texnologiyalarni qo'llash, ta'lim mazmunini (ya'ni, til materialini tanlash) bir necha bosqichlarda olib boriladi. Dastlabki bosqich, til ishoralari bilan tanishishni o'z tarkibiga oladi. Bu holda, til materialini bilan tanishish, o'qish, o'rganish, talaffuz qilish birinchi o'rinda turadi. Ya'ni, ko'pchilik hollarda o'qituvchilar ohang, talaffuzni to'g'ri saqlagan xolda o'qiydilar, o'quvchilar esa takrorlaydilar. Keyingi bosqichda, asosiy jarayon til materialini yozma va o'zaki nutqda qo'llash hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda belgilangan ta'lim mazmunini o'zlashtirishda dars va darsdan tashqari mustaqil ishlar asosiy o'rin tutadi. Ya'ni, o'qituvchining berilgan matn bo'yicha kichik insholar, diktantlar, hikoyalar yozishi, o'quvchilar esa ushbu matnlardan foydalanib, o'zlariga berilgan topshiriqlarga mustaqil xolda javoblar ko'rinishlarini tayyorlashlari hamda, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilgan xolda o'zlari tuzgan matnlarni o'zaki ravishda bayon etishlari lozim bo'ladi. Ushbu bosqichda yozma ovozli, rasmiy manbalar multimedia, turli tasvirlar, matnlar va didaktik vositalardan foydalaniladi, pirovard natijada, nutq malakalari shakllanib boradi.


Xorijiy tillar o'qituvchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirish, ularni oliy o'quv yurtlarida kasbiy jihatdan tayyorlash yoki ularning birorta til bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malaka (BKM)larini shakllantirish, fanlarni o'qitish metodlarini takomillashtirish, kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirib borish, yoki birorta, (ba'zan, zaruriy hollarda ikkita qo'shimcha tillarga qayta tayyorlash) bilan birgalikda olib boriladi. Chunki, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi - umumiy pedagogika, maktab pedagogikasi, psixologiya, pedagogik psixologiya, didaktika (ta'lim nazariyasi), tarbiya nazariyasi va amaliyoti, nutq psixologiyasi va

madaniyati, yosh psixologiyasi, tilshunoslikning ijtimoiy (sotsio) lingvistika, axborotlar (statistik) lingvistika, atamalar va matnlar lingvistikasi va turli sohalar (tibbiyot, qurilish, ishlab chiqarish, sanoat, muhandislik, harbiy va boshqalar) lingvistikalari bilan o'zaro bo'liqlikda rivojlanadi. Shuning uchun xorijiy tillar o'qituvchisini tayyorlash, kasbiy malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashda ularning BKM lari zaruriy darajada shakllangan, fikrlash ko'lami keng, dunyoqarashi, saviyasi takomillashgan, o'zining ona yurtining va tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixini, turmush tarzini, urf-odatlarini, san'atini, xalq xo'jaligini, adabiyotini, davlat tuzilishini, ichki va tashqi siyosatini ta'lim – tarbiya tizimini va boshqalarni bilishi lozim bo'ladi. Ana shundagina, xorijiy tillar o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish ishlari mazkur tillarni o'rgatishning sifati va samaradorligiga uy'unlashgan holda rivojlanib boradi.

Xorijiy tillarni turli xil davrlarda turli xil davlatlarda, jumladan, mamlakatimizda ham o'rgatish va o'rganishga qiziqishlar muhim bo'lgan, ortib borgan, chunki, davlatlar o'rtasidagi aloqalar turli xil sabablar bilan ko'payib, turlanib borgan. Xorijiy tillarni o'qishni va o'rganishni shu fanlarning (asosan, ingliz, nemis, frantsuz tillari) umumiy va xususiy metodikalarini joriy qilib borish bilan uy'unlashtirilgan. O'qituvchilar ushbu metodikalarni amaliyotga joriy qilishlari asnosida, usullarni, mashqlarni, metodlarni, vositalarni va ta'lim shakllarini takomillashtirib boradilar. Xorijiy tillarni o'qitish metodlarining amaliyotga joriy etilishida asta – sekin murakkablashib, takomillashib, samaradorligi oshib borganligi ta'riflanadi.

Samarali metodlar shajarasi





Xozirgi davrda ushbu usullar va metodlarning ba'zi samarasizlari tashlab yuborilgan, unumlilarini esa takomillashtirib, boyitilib, xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish tizimiga muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, yillar mobaynida xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish metodikalari, usullari va metodlari soddadan murakkabga qarab takomillashib borgan. Dastlab, tillarning so'zlarini tushunmasdan, quruq yodlatish uslublari ko'p qo'llanilgan bo'lsa, so'ngra ongli ravishda so'zlarni tushunib, turli vositalar yordamida o'rganish metodlaridan unumli foydalanilgan. Hozirda esa, xorijiy tillarni o'rganishda qaysi mamlakat tili o'rganilayotgan bo'lsa, o'sha davlatning tarixi, xalqi, tuzumi, siyosati, shaharlari, halq xo'jaligi va boshqa sohalari bilan atroflicha tanishtiriladi.

Xorijiy tillar o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarining takomillashib borishi, o'qitish metodikalarining rivojlanishi bilan uzviy bo'liq bo'lganligi sababli, ushbu muammolarning rivojlanishini umumiy holda qaraladi.

Mamlakatimizda xorijiy tillar o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va kasbiy malakasini oshirish taraqqiyotining mazkur tillarni o'rgatish va o'rganish metodikalarini barqarorlashtirish bilan uy'unlashib ketganligini ta'kidlagan holda, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish muammolari shu sohada qo'llanilayotgan usullar, uslublar (metodlar) va metodikalarining murakkablashib borishi bilan uzviy ravishda bo'liqdir.

2. Xorijiy tillar o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va kasbiy malakasini oshirish muammolari o'qitish va o'rganish metodikalarining takomillashi bilan uy'unlik kasb etadi.

3. Xorijiy tillar o'qituvchilarini tayyorlash, qo'shimcha mutaxassisliklarga tayyorlash va kasbiy malakalarini takomillashtirish bo'yicha ma'lum darajada ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ba'zi hollarda zamon talabiga muvofiq holda, shu soha nazariyasi va amaliyoti, metodikasini to'liq amaliyotga tatbiq eta oladigan darajada emas;

4. Xorijiy tillarni o'qitishda, o'rgatishda va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda usullar, uslublar (metodlar) va metodikalar o'zgarishi tabiiy.

5. Turli xil metodikalarning xorijiy tillarni o'rgatishda qo'llanilishida ko'pchilik hollarda audio, video, radio-tele, kompyuter lingvovositalar yetishmovchiligi mavjud.